


“Smart Farming” sohasida hamkorlik to’g’risida memorandum imzolandi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika va Materialshunoslik institutlari hamda Koreya Respublikasining DK Ecofarm Co., Ltd. kompaniyasi o’rtasida onlayn muzokaralar olib borildi. DK Ecofarm Koreyada “Aqlli qishloq xo’jaligi” (Smart Farming) tizimini joriy qilish bo’yicha eng ilg’or kompaniyalardan biri hisoblanadi. Onlayn muzokaralarning maqsadi – qayta tiklanadigan energiya manbalari, yarim o’tkazgichli datchiklar va narsalar interneti (Internet of Things – IoT) texnologiyalaridan foydalangan holda O’zbekistonda aqlli fermerlik texnologiyalarini birgalikda ishlab chiqish va joriy etish bo’yicha hamkorlik aloqalarini o’rnatish, shuningdek, ushbu texnologiyalarni tijoratlashtirish bilan bog’liq loyihalarni birgalikda amalga oshirishdan iborat.



Muzokaralar natijasida O’zR FA Fizika-texnika va Materialshunoslik institutlari hamda DK Ecofarm Co., Ltd. (Koreya Respublikasi) o’rtasida hamkorlik to’g’risida memorandum imzolandi.





Kelishuvga muvofiq, tomonlar O’zbekistonda “aqlli” qishloq xo’jaligi texnologiyalarini rivojlantirish va shu bilan bog’liq boshqa bir qator sohalarda hamkorlik qiladilar. Shuni ta’kidlash joizki, raqamli iqtisodiyotni barpo etish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, shu jumladan, O’zbekiston uchun muhim tarmoqlardan biri bo’lgan qishloq xo’jaligida axborot texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi. Shu maqsadda DK Ecofarm Co., Ltd. bilan hamkorlikning asosiy yo’nalishi – narsalar interneti texnologiyalaridan va qayta tiklanadigan energiya manbalari hamda yarim o’tkazgichli datchiklardan foydalangan holda yopiq izolyatsiyalangan tizimlarda qishloq xo’jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun texnik yechimlar ("Aqlli issiqxonalar") va avtomatlashtirilgan intellektual texnologiyalarni birgalikda ishlab chiqish va amaliy qo’llash bo’ladi. Ushbu texnologiyalarni amalda qo’llash natijasida qishloq xo’jaligida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ish unumdorligini hamda hosildorlikni oshirish imkoniyati yaratiladi.